

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**TA'LIMNING RIVOJLANISH TARIXI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	70220303- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix)

Fan/modul kodi TRT2205		O‘quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5		
Fan/modul turi Tanlov fan		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Kurs ishi	Jami yuklama (soat)	
	Ta’limning rivojlanish tarixi	60	90	-	150	
2.	I. Fanning mazmuni II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) 1- mavzu. “Talimning rivojlanish tarixi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari hamda istiqboli. “Ta’limning rivojlanish tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanining turkumi va ularning vazifalari, fanining mutaxassislik fanlarida tutgan o’rni. “Ta’limning rivojlanish tarixi” fanini o’qitishda innovatsion yondashuvlar. “Ta’limning rivojlanish tarixi” fanini o’qitida asosiy pedagogik tushunchalar. 2-mavzu. Markaziy Osiyoda ta’lim tizimining shakllanish tarixi. Markaziy Osiyoda ta’lim tizimini paydo bo’lishi, qadimgi davr va ilk o’rta asrlarda mavjud ta’lim jarayonlari, islom dinining keng yoyilishi va ta’lim tizimidagi o’zgarishlar, ta’lim berishning Markaziy Osiyoga xos usul va jixatlari. 3-mavzu. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlar uyg’onish davrida ilm-fan va ta’lim tizimi rivoji. IX-XII asrlarda Markziy Osiyoda islom madaniyati ta’sirida ilm-fanning rivojlanishi, maktab va madrasalar faoliyati. Samoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshoxlar davlatida ta’lim tizimi tarixi. Uyg’onish davrida ta’lim jarayoni taraqqiyoti. 4-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida ta’lim tizimi va ilm-fan taraqqiyoti. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti. Amir Temurning ta’lim tizimini yuksaltirishga e’tibori. Ulug’bek xukumronligi davrida ta’lim sohasidagi o’zgarishlar.					

5-mavzu. O'rta asr Yevropa ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim asoslarini yuzaga kelishi, nazariyotchilar yondashuvi.

O'rta asr Yevropa mamlakatlarida ta'limni tashkil etish va mazmunining o'zgarib borishi, Ya. Komenskiyning pedagogik g'oyalari. "Buyuk didaktika" asari, maktab ta'limini yo'lga qo'yish borasidagi go'yalar mazmuni.

6-mavzu. Buxoro xonligi (amirligi) davrida ta'li tizimi.

Buxoro xonligida ta'lim tizimiga munosabat. Maktablar, qorixonalar, qizlar maktabi va madrasa ta'lim tizimi tarixi. Xonlar va amirlar davrida ta'limni rivojlantirishga munosabat masalalari.

7-mavzu. Xiva xonligi va Qo'qon xonligi davrida ta'lim sohasi.

Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim tizimiga munosabat. Maktablar, qorixonalar, qizlar maktabi va madrasa ta'lim tizimi tarixi. Xonliklarda xonlar davrida ta'limni rivojlantirishga munosabat masalalari.

8-mavzu. Chor Rosiyasining O'rta Osiyo ta'lim tizimida olib borgan mustamlakachilik siyosati.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoda ta'lim tizimida mustamlakachilik qarashlari. Rus tuzem maktablari, maxalliy axolini ruslashtirish siyosati

9-mavzu. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiya va ilm-fanni yuksaltirish maqsadida oli borgan faoliyati.

Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi amaliy say-harakatlari mazmuni, iqtidorli yoshlarni chet elga yuborish harakatlari. Ta'lim sohasidagi o'quv qo'llanmalarini chop etilishi.

10-mavzu. O'zbekistonda 1918-1940 yillardagi ta'lim tizimi va uni mafkuraviy qaramligi.

Sovet xokimiyatining 1824 yillarida Turkiston, so'ngra 1924-1940 yillarida O'zbekiston SSRda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, sovet xokimiyatining ta'lim tizimini mafkuraviy ta'sirga olinishi. Qatog'on siyosatining ta'lim jarayoni nomoyondalari faoliyatiga salbiy ta'siri.

11-mavzu. 1946-1990 yillar O'zbekistondagi maorif sohasi tarixi.

1946-1990 yillarda O'zbekiston SSRda ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar, davr ta'limi muammolari, bu davrda ta'lim tizimida kechki ta'limning rivojlanishi xususiyatlari, umumta'lim bosqichida ta'lim mazmunining umumiy xususiyatlari mazmuni.

12-mavzu. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ta'lim sohasida islohotlar mazmun va mohiyati, O'tish davri murakkabliklarining ta'lim tizimiga ta'siri. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonunning asosiy xususiyatlari.

13-mavzu. O'zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasi negizida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohatlarning amaliy natijalari.

O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi negizida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning amaliy natijalari, Sh.Mirziyoyev raxbarligida Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasini taraqqiy ettirish jarayoni.

14-mavzu. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston-2030 dasturlarida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yo'nalish va maqsadlar.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan yo'nalish va maqsadlar. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida ta'lim sohasini yanada takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va moxiyati.

15-mavzu. Jahon mamlakatlarining ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalari va uni O'zbekistondagi integratsiyasi istiqbollari.

Jahon mamlakatlarida ta'lim tizimi bosqichlarida ta'limni tashkil etish, ta'lim mazmunini yuksaltirish yangiliklari, tajribalari, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ta'limdagi innovatsiyalarni qo'llash natijalari va istiqbollari.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

(Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Seminar mashg'ulotlar talabalarning ma'ruza darslarida o'tilgan bilimlarni mustahkamlash va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish va ularga asoslanilgan holda chuqur va atroflicha bilim olishlariga yordam beradi va turli manbalardan yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilishga va mavzular yuzasidan ilmiy va manbaviy jihatdan asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lishga imkon beradi. Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzularni tavsiya etish ko'zda tutilgan:

1-mavzu. "Talimning rivojlanish tarixi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari hamda istiqboli.

2-mavzu. Markaziy Osiyoda ta'lim tizimining shakllanish tarixi.

3-mavzu. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlar uyg'onish davrida ilm-fan va ta'lim tizimi rivoji.

4-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida ta'lim tizimi va ilm-fan taraqqiyoti.

5-mavzu. O'rta asr Yevropa ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim asoslarini yuzaga kelishi, nazariyotchilar yondashuvi.

6-mavzu. Buxoro xonligi (amirligi) davrida ta'lim tizimi.

7-mavzu. Xiva xonligi va Qo'qon xonligi davrida ta'lim sohasi.

8-mavzu. Chor Rosiyasining O'rta Osiyo ta'lim tizimida olib borgan mustamlakachilik siyosati.

9-mavzu. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiya va ilm-fanni yuksaltirish maqsadida oli borgan faoliyati.

10-mavzu. O'zbekistonda 1918-1940 yillardagi ta'lim tizimi va uni mafkuraviy qaramligi.

11-mavzu. 1946-1990 yillar O'zbekistondagi maorif sohasi tarixi.

12-mavzu. Mustaqillikning datslabki yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar.

13-mavzu. O'zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasi negizida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohatlarning amaliy natijalari.

14-mavzu. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston-2030 dasturlarida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yo'nalish va maqsadlar.

15-mavzu. Jahon mamlakatlarining ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalari va uni O'zbekistondagi integratsiyasi istiqbollari.

Seminar mashg'ulotlar mul'timediya qurilmalari bilan jihzlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Talimning rivojlanish tarixi" fanining dolzarb muammolari va yechimlari.
2. "Talimning rivojlanish tarixi" fanini o'qitishga qo'yiladigan talablar va uni tahlili.
3. Avestoda didaktik g'oyalarning ifoda etilishi.
4. Markaziy Osiyoda ta'lim tizimining shakllanish tarixi.
5. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ta'lim tizimi tarixi.
6. Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiyning ta'lim to'g'risidagi nazariy qarashlari tarixi.
7. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlar uyg'onish davrida ilm-fan va ta'lim tizimi rivoji
8. Amir Temur va temuriylar davlatida ta'lim tizimi va ilm-fan taraqqiyoti.
9. Yan Amos Komenskiyning ta'lim nazariyasi mazmuni.
10. Turkistonda rus-tuzem maktablari faoliyati.
11. Turkistonda yangi usul maktablari tarixidan.
12. Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim tizimining ahvoli.
13. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohatlar.
14. Yangi O'zbekiston ta'lim tizimi taraqqiyoti asosiy yo'nalishlari.
15. Jahon mamlakatlarining ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalari.

	<i>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i>
3.	V.Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magist: • Magistrantlarni Ta'limning rivojlanish tarixi faninining asosiy xususiyatlari, Markaziy Osiyoda ta'lim tizimini shakllanishi, bosqichlari va rivojlanish tarixi, O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • Ta'limning rivojlanish tarixi faninini o'zlashtirgan talaba ma'ruza, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini texnologik xaritasini tuzish, ma'ruza matnlari va slaydlar taqdimotini tayyorlash haqida fenomenologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, yangi axborot texnologiyalarini qo'llab, olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatida qo'llay olish kabi <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i>. • Ta'limning rivojlanish tarixi faninini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va o'quvchilarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Ma'ruzalar, interfaol keys-stadilar, seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar), guruhlarda ishlash, taqdimotlarni qilish, individual loyihalar, jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun». 2020 2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To'ldirilgan ikkinchi nashri –Toshkent: O'zbekiston, 2022 yil – B.416

	3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024. 6. Axmedova R. M. Tarix o‘qitish metodikasi.-Farg‘ona. O‘quv qo‘llanma. 2023 7. Karimov Q. tarix o‘qitish metodikasi. –Farg‘ona. Darslik. Vodiy pollig. 2023 8. Abdullayeva M. Ta’lim tarixi.- O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2021 Qo‘shimcha adabiyotlar 1. Ergashev Q, Hamidov X. O‘zbekiston tarixi. - T.: G‘afur G‘ulom, 2018. 2. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. O‘zbekistonning yangi tarixi / Tuzuvchilar N.Jo‘raev, T. Fayzullaev. Uchinchi kitob. – T.: SHarq, 2000. 3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. To‘plam. – T.: Universitet, 1999. 4. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar. - T.: O‘zbekiston, 2000. Internet saytlari 1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3. www.ziyonet.uz 4. www.edu.uz
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma’sul: Esonov Ziyodbek Yuldashevich Qo‘qon DU “Tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: Z.Ilhomov – Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri, t.f.n. Q. Karimov Tarix kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).